

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
B.Q.Qurbanova	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar	22
S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni	27
G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
Sh.A.Ro'zaliyev	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari	40
A.R.Abdullayeva	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili	43
N.U.Alijonov	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
M.Y.Atadjanov	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili	54
N.N.Ahmadjonov	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
M.A.Djalalova	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili	65
N.A.Ergasheva	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
Sh.K.Mamajonova	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	73
D.M.Mo'minov	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish	81
D.M.Nuralieva	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	87
R.S.Nuriddinov	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
M.J.Rajabov	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili	96
F.S.Soliyev	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
Sh.A.Usmonov	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli	106
M.B.Yuldasheva	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari	111
G.S.Yunusova	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili	116
M.S.Zakirova	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni	121
H.A.G'anieva	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA	134



УО'К: 152.22

NIKOH YOSHI - OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILI

БРАЧНЫЙ ВОЗРАСТ – СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ СЕМЬИ

AGE OF MARRIAGE - A SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTOR OF ENSURING FAMILY STABILITY

Abdullayeva Aropat Rustamovna 

Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oxirgi yillarda mustaqil O'zbekistonimizda oila va nikoh muqaddas qadriyat sifatida e'tirof etilgani bois oila ilmi, aniqrog'i, nikohga kirib, oila qurib, baxt-saodatga erishish, fazilatli, yurtparvar, aqli va solih farzandlar o'stirib, kamolga yetkazish ilmi ko'pchilikni qiziqtirayotganligi hamda l'miy nuqtai nazardan tahlil etilganda, yosh oila – bu jamiyatda mavjud bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy guruh bo'lib, o'z navbatida u davlat va jamiyatning istiqbolli rivoji va mafkuraviy holatida muhim ahamiyatli ekanligi va yosh ollaning barqarorligi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurban ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-onha oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini o'z oilasida qo'llay bilish mahorati nikoh yoshi bilan bevosita bog'liq omillarning ijtimoiy psixologik mohiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье в нашем независимом Узбекистане в последние годы семья и брак признаны священными ценностями, поэтому наука о семье, точнее, женитьба, построение семьи, достижение счастья, воспитание добродетельных, патриотичных, умных, и праведных детей, наука о взрослении интересует многих людей, а при анализе с научной точки зрения молодая семья представляет собой уникальную социальную группу, существующую в обществе, и, в свою очередь, важна для Перспективное развитие и идеологическое состояние государства и общества и устойчивость молодой семьи, время, необходимое ей для самостоятельного решения различных бытовых проблем, на самом деле является признаком искреннего отношения двух женатых людей друг к другу, гармоничных взглядов, семья и окружающие ее ценности, пример в родительской семье сведения о социальной и психологической природе факторов, непосредственно связанных с возрастом вступления в брак.

Abstract

In this article, family and marriage have been recognized as sacred values in our independent Uzbekistan in recent years, so the science of family, more precisely, getting married, building a family, achieving happiness, raising virtuous, patriotic, intelligent and righteous children, the science of bringing to maturity is of interest to many people, and when analyzed from a scientific point of view, the young family is a unique social group that exists in society, and in turn, it is important for the perspective development and ideological state of the state and society. and the stability of a young family, the time it takes for it to independently solve various household problems is actually a sign of the sincere relationship of two married people to each other, harmonious views of the family and its surrounding values, an example in the parental family information about the social and psychological nature of the factors directly related to the age of marriage.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, nikoh, omil, davlat, ma'naviy, axloqiy, shaxs, kamolot, psixologik.

Ключевые слова: Семья, ценности, брак, фактор, государство, духовный, нравственный, личность, зрелость, психологический.

Key words: Family, value, marriage, factor, state, spiritual, moral, personality, maturity, psychological

KIRISH

O'zbekistonda oilani rivojlantiriiga global darajada, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasi\[1,4\]](#) doirasida e'tibor qaratilib, oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, oila ajralishlari bilan bog'liq salbiy

tendentsiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Mazkur chora-tadbirlar ona shaxsining farzanlar kamolotiga ta'siri, ularning turli oila turlari va shakllaridan qat'iy nazar barqaror tarbiya muhitini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni turmushida tatbiq qilish vazifasini yuklamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, shuningdek, 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldag'i "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1-may 2023-yildagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 14-avgustdag'i «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oila mustahkamligiga nikohga kiruvchilarning yoshi ham ta'sir etishini inobatga olib. ushbu kodeksning 15-moddasida "Nikoh yoshi"ni fiziologik, psixologik nuqtai nazardan o'rjanib chiqqan holda yigitlar va qizlar uchun 18 yosh etib belgilangan. Bugungi kunda rasman ruxsat etilgan nikoh yoshi xususida jamoatchilikning fikri o'rjaniqmoqda, chunki nikoh yoshi qator omillarga - demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviyga ham bog'likki, bu o'rinda uning ijtimoiy psixologik mohiyatini ham o'rjanish o'rnlidir, deb hisoblaymiz. Insoniy munosabatlarda gumanizm tamoyillari ustivor bo'lgan yurtimizda yosh oilaning mustahkam va baxtli bo'lishi oila va nikoh munosabatlarini muvoqiflashtirish, oila institutini tom ma'noda fuqarollik jamiyatining muhim bo'g'ini sifatida qadrash bilan bog'liq. Ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-onalarda ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolarni professor V.M.Karimova quyidagi holatlarga bog'liq tarzda ko'rsatadi: oilaviy hayotni birday kechishini ta'minlash, ishslash, o'qish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi; vaqtning yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarni cheklanganligi; yangi sharoitda erkakning ham ayloning ham jismonan toliqishi, asablarning charchashi; iqtisodiy qiyinchiliklar.[4,64]

Psixologik nuqtai nazardan tahlil etilganda, barcha davrlar va zamonlarda ham yosh oila kategoriysi o'ziga xos tarzda o'rjaniqgan. Zero, har bir alohida olingan ijtimoiy-tarixiy davr o'zining rivojlanish xususiyatlariga ega va bu holat albatta, uning dastlabki kichik bo'g'ini bo'lmish oilada o'z aksini topadi. Jamiyat miqyosida olib qaralganda, oila, ayrim olimlar (G.M.Andreva, A.I.Zaxarov, V.S.Toroxtiy, N.Ya.Solveva va boshqalar)ning haqli e'tirof etishlari bo'yicha, bu-birlamchi guruhdir.[3,43] SHu bois ham oila yo'nalishida o'tkaziladigan tadqiqotlarda uning ijtimoiy guruh sifatida o'ziga xos bo'lgan sifatlari, xususiyatlari o'rjaniqadi.

Rus olimi A.Antonovning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, hulq andozalarini egallaydi.[6,12] Lekin olimning fikricha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli o'zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti[1,34]. Demak, jamiyatda o'z davriga munosib, sog'lom fikrlovchi yoshlarni

PEDAGOGIKA

tarbiyalab, voyaga yetkazish yosh oilaning asosiy vazifasi bo'lib, bunda ularning bahamjihatlikda yashashi muhim sanaladi. Shuning uchun ham olim eng mustahkam nikohga sabab bo'lgan munosabatlarda ikkala tomon ham shaxs sifatida tobora takomillashib, sayqal topib, ularda o'zaro mehrga, bir-biriga yordam berishga ishtiyoq ortib boraveradi, deb hisoblaydi.

Ya.Gozman, K.Xorni va boshqalarning yozishlaricha, faqat emotsiyallarga hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qardoshlik munosabatlari aylanib boradi. Yu.Dubrovinnning ta'kidlashicha, "Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozasi bilan bora-bora munosabatlар chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlар sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko'tariladi".

Oila psixologiyasini o'rgangan olimlardan yana biri Amerikalik tadqiqotchi Virjiniya Satir bo'lib, u oilaviy hayotni oila energetikasi, oila tizimi, chegarasi va funksional xususiyatlari kabi tizimlarga ajratdi. Oila energetikasi oilaning tibbiy-biologik xususiyatlaridan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, ekologik shart-sharoitlardan boshlab, tiriklikning mezonlari bo'lmish ovqatlanish hamda har bir oila a'zosining xatti-harakatlarining namoyon bo'lishigacha qamrab oladi.

Ota-onasining oilasida ko'rgan-kechirganlari bolaning bo'lg'usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir. N.Pezeshkian ushbu omilning uch jihatini ajratadi: turli stresslarga nisbatan munosabat; hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat me'yorlari; oilaviy munosabatlari. Pezeshkian, ayni emotsiyallarga sohalarda er-xotin o'zaro munosabatlarining o'xshamasligini er-xotin nizolaridagi asosiy sabab deb, hisoblaydi.

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zлари ham, o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlari orasida eng samimi, eng yaqin bo'ladigan oilaviy munosabatlari ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, qishloq xo'jaliklari, sanoat ishlab chiqarish, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga o'ziga xos yangicha talablar qo'yemoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomonidan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqat munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsiyallarining yuzaga kelishiga asos bo'immoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda o'z ifodasini topadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Endi shu xususiyatlarning bugungi kun yoshlarda ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar, biroq ular biror - bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun avvalo mifiktabni bitirishi, yoki 9 yil mifiktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi.

12 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yoshlarmizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettiradi. Bundan ko'rinish turibdiki yoshlarmizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari odamlarning kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirk organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqsa olmasligi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi uni inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjallli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola keyinchalik nafaqat ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr

oqibatsiz bo'lib, shafqatsiz, zolim, xudbin jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Shuning uchun yosh oilalarda nikoh mustahkamligi borasidagi fikrlarini o'rganish uchun anketa so'rvonomasidan foydalandik.

Yosh oila vakillarining nikoh, oila mustahkamligi borasidagi fikrlari

1-jadval

Variant	1		2		3		4		5		6	
	Yigit	Qiz										
A	28 %	48 %	28 %	-	68 %	40 %	60 %	64 %	20 %	28 %	64 %	32 %
B	20 %	36 %	72 %	24 %	-	28 %	20 %	16 %	32 %	40 %	28 %	16 %
v	52 %	16 %	-	76 %	32 %	32 %	20 %	20 %	48 %	32 %	9 %	52 %

Yosh oila vakillarining nikoh mustahkamligi borasidagi fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, oila mustahkamligini qizlar ma'naviy, axloqiy va psixologik yetuklik bilan yigitlar esa jinsiy va huquqiy yetuklik hamda kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik bilan bog'lashdi.

Turmush qurishdagi yoshni qizlar eng maqbul yosh sifatida 18, 19, 20 yoshlarni, yigitlarning aksariyati 21-22 yoshni tanlashdi.

Oila qurishdagi muhim omil sifatida har ikkala jins vakillari fikrlarining yakdilligini sevgi bilan va sovchilar bilan bog'lashlarida ko'rishimiz mumkin. Lekin yigitlarimiz orasida oz bo'lsada (28 foiz) moddiy manfaatdorlikni ustun qo'yib oila qurishni xohlovchilar borligi bizni ajablantirdi.

Oilaviy hayot psixologiyasi borasida yoshlarimizda qanday bilimlar yetishmaydi degan savolga respondentlarning 62 foizi jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlar deb javob qaytarishdi. Haqiqatan ham biz yoshlar o'tasida jinsiy hayot bilan bog'liq tarbiyani keng yo'nga qo'yishimiz lozim, chunki bugungi kunda aksariyat oilalardagi kelishmovchiliklar aynan shu borada yoshlarimizning oz ilmiy bilimga ega ekanligidan kelib chiqmoqda.

Yoshlarning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati bilan bog'liq fikrlarida yigit va qizlar yarim-bir yil muddatni avzal ko'rishdi. Lekin yoshlar orasida tanish muddatiga qarshi bo'lganlar 40 foizni tashkil qildi.

Yosh oila vakillarining oilaviy hayotga tayyorliklarini aniqlash maqsadida "O'zingizni oilaviy hayotga tayyorman, deb hisoblaysizmi?" savolini berib ko'rdik. "Ha" javobini bergan qizlar 64 foizni, yigitlar esa 32 foizni tashkil etdi. Respondentlarning javoblaridan qizlarimiz yigitlarga nisbatan o'zlarini oilaviy hayotga tayyorlik darajasi bilan yuqori ko'rsatkichga ega ekanliklarini namoyon qildi. "Bilmadim" degan javobni esa 28 foiz qizlar va 16 foiz yigitlar tanlagan. Natijadan qizlar orasida aniq pozitsiyaga ega bo'lmaganlar ko'pchilikni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Oilaviy hayotga "tayyor emasman" deganlar yigitlar o'tasida ko'pchilikni ya'ni 52 foizni tashkil etdi. Bundan ko'rinish turibdiki, yigitlar oldin mutaxassislik darajasini egallab, oilani tebratish imkoniyatiga ega bo'lib, so'ng oila qurish lozimligini ta'kidlaganlar.

Nikohga yetuklik tushunchasi o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida va ma'naviy, axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Agar odamni u yoki bu faoliyatiga «To'la yetukligi» haqida gapiradigan bo'lsak, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun odamning nikohiga yoki biror bir faoliyatiga yetukligi haqida gapirilganda «yetuklik» tushunchasi tom ma'noda o'rinli bo'la olmaydi. Shu nuqtai-nazardan olganda «yetuklik»-rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatiy va miqdoriy tavsifini ma'lum bir anqlikda

PEDAGOGIKA

belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab biror bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'lmaydigan individual xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Nikoholdi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari; ularni o'zlarini bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin.

Masalan, nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Ularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar belgilangan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar bir oz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Oilaviy hayotda jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlarni kompleks tahlil qilingan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajralishgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29% ida) jinsiy munosiblikning u yoki bu tarzda bo'lishi (er-xotinning nomutanosibligi) sabab bo'lmoqda.

Albatta, o'zaro sevgi, ishonch va hurmat hislari, qiziqishlari va niyatlarning umumiyligi hislari qisqa vaqt oralig'ida yuzaga kelgan.

Shunga ko'ra shoshilinch oila qurgan juftlarga jinsiy hayot psixologiyasi borasidagi bilimlar o'z-o'zidan yordam bera olmasligi mumkin.

Shunday qilib, jinsiy yetuklik odam anatomiysi va fiziologiyasi nuqtai nazaridan yetarlicha aniq va ravshan bo'lgan xodisadir. Yoshlarning nikohga jinsiy yetuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek, yana bir nechta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va psixologik yetukliklardir.

Fuqarolik huquqiy yetuklik va odamning huquqiy jihatidan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi.

Kasb-hunar yetukligi bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomonidan u qandaydir bir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Shaxsning yetukligining yana bir jihatni ijtimoiy-iqtisodiy yetuklikdir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay ola bilishi nazarda tutiladi. Yoshlarni oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega.

Gap shaxsning psixologik yetukligi haqida borgudek bo'lsa, bundan dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarini hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik, amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va qobiliyatini yetarlicha ob'ektiv baholay olishda ham namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yib olish hollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimiz ko'proq xatoga o'zlarini orttirib baholashga, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani kutishga yo'l qo'yish hollari ko'proq kuzatiladi. Psixologik yetuklik, shaxs huquqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobjiy munosabatlari: hamillardlik, hamfikrlik, g'amtashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilalar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'ziga biriktiradi. Psixologik yetuklikning muhim me'zonlardan biri shaxsning oilaviy muammolarini adolatli xal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashiga ega bo'lishi, zarur bo'lganda oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalarini oldida himoya qila olishidir.

Demografik nuqtai nazaridan olinganda, oila qurish deganda ma'lum bir kishilarni emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarida tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, avlod yosh jihatidan qanchalik katta bo'lsa, u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarning har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20-24 yoshdagisi guruh, 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladi. 1-avlod vakillaridan ijtimoiy - iqtisodiy yetuklik darajasi yuqoriq bo'ladi, chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki o'quv yurtlarini tamomlagan, u yoki bu kasb - hunarni egallagan bo'ladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi»da erkak va ayollar uchun turmush qurishdagi minimal yosh sifatida 18 yosh ko'rsatilgan. Bu yoshni mahalliy qarorga ko'ra, alohida istisnoli holatlarni hisobga olib, ayollar uchun bir yoshga qisqartirish mumkin. Turli mamlakatlarda urf-odatlar va milliy an'analarga bog'lik ravishda erkak va ayollarning turlicha minimal nikoh yoshi belgilangan. Masalan, erkaklar uchun 14 yoshdan (Irlandiya, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarda) - 21 yoshgacha (Polsha, Avstraliya, Germaniya va ayrim Skandinaviya davlatlarida) bo'lgan davr orasiga to'g'ri keladi.

Ko'pincha katta avlod vakillari, yoshlarni yetuk emaslikda ayblaydilar. Lekin ayni paytda bunday yetilmaslikning obyektiv sabalari va shart-sharoitlari e'tibordan chetda qoladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'nnaviy, ilmiy va texnikaviy jarayonlarning kechishi yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar, texnik yetuklikning kechikib ketishiga olib kelmoqda.

Masalaning ikkinchi tomoni, yoshlarni ijtimoiy yetilishi bosqichlari va fazalarida ob'ektiv qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va ularni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda bu hayotiy xaqiqatni doimo nazarda tutish lozimligidir. Akseleratsiya jarayoni va boshqa omillar tufayli bolalarda jinsiy balog'atga yetish ularning bundan 70-100 yil oldingi tengdoshlariga qaraganda 2 yilga erta ro'y bermoqda. Shu bilan bir vaqtida maxsus ta'lim olish, kasb-hunar egallash va iqtisodiy mustaqillikka erishish kamida 22-25 yoshga va undan keyinga surilib kelyapti.

Mustaqillik tamoyillari va axloqiy me'yorlar asosida rivojlanib borayotgan oilalarda axloqiy msunosabat madaniyatini, oila a'zolari o'rtaSIDA ochiq ko'ngilllik, xushfe'lllik, rostgo'ylik, muruvvat, oriyat, kamtarlik, bosiqqlik kabi xislatlarni kundalik axloq me'yoriga aylantirish lozim. Allomalarimiz ta'kidlaganlaridek, inson oila, jamiyatda komillik va mukammal axloqiy fazilatlarga faqat yaxshi aql, yaxshi xulq, yaxshi bilim, yaxshi so'z va yaxshi niyatlar uyg'unlashishi orqali erishadi. Bu fazilatlar oilada yetakchi ahamiyat kasb etadi. Uni axloqiy burch, ijtimoiy majburiyat, ichki e'tiqodga aylantirsak, fazilatlar hayot qoidasi, faoliyat va munosabatlar mezoni bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017 y., 6-son.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliv o'quv yurti talabalari uchun darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2008.-74-b.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliv o'quv yurti talabalari uchun darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2008.-75-b
4. Социология семьи: Учебник / Под ред. Проф. А.И.Антонов.-М.: ИНФРА-М, 2005-С.220
5. Социология семи: Учебник / Под ред. Проф. А.И.Антонов.-М.: ИНФРА-М, 2005-С.235
6. Торохтий В.С. Осноциальнопсихологического обеспечения социальной работы с семьей.-М.,2000.